

Xalqaro rivojlanmoqda

aloqalar

Joriy yilning 21-oktabr kuni Yaponiyaning Aychi Prefektura Universiteti vitse-prezidenti, direktori va professori Hiroaki KAWABATA O'zbekiston Respublikasi Prezident sayloviga kuzatuvchi sifatida kelgan safari davomida Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetiga ham tashrif buyurdi. Tashrif davomida Mr.KAWABATA universitet kampusi faoliyati bilan yaqindan tanishib kelgusidagi birgalikda hamkorliklar haqida kelishib olindi. Uchrashuv davomida professor-o'qituvchilarning ilmiy hamkorligini yo'lga qo'yish va "Axborot texnologiyalari" yo'nalishi talabalari uchun talaba almashinuv dasturini amalga oshirish haqidagi kelishuvga erishildi.



